SAMARQAND VILOYATI JOMBOY TUMANI HOKIMINING QARORI

Jomboy t, mustaqillik maydoni, 1-uy.

2024 - yil 31 - yanvar 22-7-94-Q/24 Jomboy tumani hokimligi

Tumanda 2024-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda-Nizom) muvofiq transport vositalarining 2024-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo‘yidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli

yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari-bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari)-ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi-shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda-DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta 1-mart- 30-iyunda;

ikkinchi marta 1-sentabr- 31-oktabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar-31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek,

transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik subyektlari-yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan ML toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik subyektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 9 martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2022-yil 14-dekabrdagi “Tumanda 2023-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi 499-7-94-Q/22-sonli qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

11. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari B.Mamatov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **Q.Sobirov**

Jomboy tuman hokimining
2024-yil 31-yanvardagi
22-7-94-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Jomboy tumani hududida 2024-yil transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazish komissiyasi

T A R K I B I

S.Rustamov	Tuman IIB yo‘l harakati xavfsizligi guruhi, boshlig‘i, **komissiya raisi**

Komissiya a’zolari

J.Rahmatov	Tuman ekologiya atrof-muhitni muhofaza muhofaza qilish va iqlim o‘zgarish qilish

bo‘limi

Sh.Niyazov	Tuman mudofa ishlar bo‘limi
Sh.Qodirov	Tuman “Vatanparvar” tashkiloti

Komissiya kotibi

A. Rafiqov

Tuman IIB yo‘l harakati xavfsizligi guruhi, katta serjant

Izoh: Komissiya a’zolari boshqa ishga o‘tgan taqdirda, ularning o‘rniga yangi tayinlangan shaxslar komissiya a’zosi hisoblanadi.

Jomboy tuman hokimining
2024-yil 31-yanvardagi
22-7-94-Q/24-son qaroriga
2-ilova

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2024-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish
J A D V A L I

№	Korxonalar, muassasalar va tashkilotlar nomi	Jami TV soni	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish sanasi		
			Birinchi marta	Ikkinchi marta	Texnik ko‘rikdan o‘tkazish manzili
1	Damir qurilish X/K	4	01.03.2024	03.09.2024	O‘z manzilida
2	Azizjon-shirin nonlari	3	02.03.2024	05.09.2024	O‘z manzilida
3	Gaz Baraka Plyus	4	03.03.2024	07.09.2024	O‘z manzilida
4	Ko‘xnur MChJ	8	04.03.2024	07.09.2024	O‘z manzilida
5	BMAX Paintes MChJ	15	05.03.2024	09.09.2024	O‘z manzilida
6	Lilian Motrs Klass	15	07.03.2024	10.09.2024	O‘z manzilida
7	Qora-Gavxar-Oybek MChJ	16	08.03.2024	12.09.2024	O‘z manzilida
8	Suxrob-Jovaxir-Trans MChJ	56	09.03.2024	13.09.2024	O‘z manzilida
9	Joni-grant Trans MChJ	28	10.03.2024	14.09.2024	O‘z manzilida
10	Begzod Avto trans X-K	21	11.03.2024	15.09.2024	O‘z manzilida
11	Ravon Ilxom Trans	41	12.03.2024	16.09.2024	O‘z manzilida
12	Sam Xosilbek trans MChJ	23	14.03.2024	17.09.2024	O‘z manzilida
13	Global avto trans	37	15..03.2024	19.09.2024	O‘z manzilida
14	Anor Trans	19	16.03.2024	20.09.2024	O‘z manzilida
15	Archazor Trans MChJ	25	17..03.2024	21.09.2024	O‘z manzilida
16	Ma’ruf Avto trans MChJ	3	18.03.2024	22.09.2024	O‘z manzilida
17	Baxt va Nishon baxt X/K	15	19.03.2024	23.09.2024	O‘z manzilida
18	O‘zbekgazsuv qurilish MChJ	16	21.03.2024	24.09.2024	O‘z manzilida
19	Mirzapay ITB	9	22.03.2024	26.09.2024	O‘z manzilida
20	Samarqand me’mor pristij MChJ	8	23.03.2024	27.09.2024	O‘z manzilida
21	Maroqand meva sabzovat MChJ	36	24.03.2024	28.09.2024	O‘z manzilida
22	M.Mannanov kelajagi bog‘i MChJ	6	25.03.2024	29.09.2024	O‘z manzilida
23	Jomboy o‘quv Sport texnika kulibi	18	26.03.2024	30.09.2024	O‘z manzilida
24	Man avto O‘zbekiston	12	28.03.2024	01.10.2024	O‘z manzilida
25	Uz avto trayler MChJ	5	29.03.2024	03.10.2024	O‘z manzilida
26	Jomboy yashil chirqlari	15	30.03.2024	04.10.2024	O‘z manzilida

27	Jomboy TYFUK	8	01.04.2024	05.10.2024	O‘z manzilida
28	Amin Invest K/K	14	02.04.2024	06.10.2024	O‘z manzilida
29	Jomboy Don OAJ	24	04.04.2024	07.10.2024	O‘z manzilida
30	Jomboy TB	2	05.04.2024	08.10.2024	O‘z manzilida
31	Jomboy tuman DSM	2	06.04.2024	10.10.2024	O‘z manzilida
32	Mangu IChTF	3	07.04.2024	11.10.2024	O‘z manzilida
33	Samarqand memorchilik pristij MChJ	5	08.04.2024	12.10.2024	O‘z manzilida
34	Jakfo Agromir X/K	3	09.04.2024	13.10.2024	O‘z manzilida
35	Leniza IChK	3	11.04.2024	14.10.2024	O‘z manzilida
36	Temir beton 2004 MChJ	10	13.04.2024	17.10.2024	O‘z manzilida
37	SPMK 406 qurilish tresti	6	14.04.2024	18.10.2024	O‘z manzilida
38	Q.Abdurahmonov YYX MTP	2	15.04.2024	19.10.2024	O‘z manzilida
39	Obodonlashtirish boshqarmasi	17	16.04.2024	20.10.2024	O‘z manzilida
40	Toza hudud	14	18.04.2024	21.10.2024	O‘z manzilida
41	U.Nabiev barakali savdo MChJ	10	19.04.2024	22.10.2024	O‘z manzilida
42	Otafuba X.I	55	20.04.2024	23.10.2024	O‘z manzilida
43	Aziz Xildola	32	21.04.2024	24.10.2024	O‘z manzilida
44	Bunyodkor	1	22.04.2024	25.10.2024	O‘z manzilida
45	Jasur nur trans MChJ	13	23.04.2024	26.10.2024	O‘z manzilida
46	Jomboy sment MChJ	6	25.04.2024	27.10.2024	O‘z manzilida
47	Kareta trans MChJ	33	26.04.2024	28.10.2024	O‘z manzilida
48	Guliston avto kent MChJ	37	27.04.2024	29.10.2024	O‘z manzilida
49	Jomboy nasilli paranda MChJ	9	28.04.2024	01.11.2024	O‘z manzilida
50	Buyuk makan svdo MChJ	2	28.04.2024	01.11.2024	O‘z manzilida
51	Keramek brik MChJ	2	28.04.2024	01.11.2024	O‘z manzilida
52	Damir qurilish servis MChJ	6	28.04.2024	01.11.2024	O‘z manzilida
53	Dilshod dekta servis MChJ	2	29.04.2024	01.11.2024	O‘z manzilida
Jami		**779**			